

Raxmanov Abdimalik Ergashevich

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi, falsafa fanlari nomzodi

E-mail: raxmanov-57@mail.ru

Tel: +998905195503

UDK: 091.122 (172.14)

MILLIY-MA'NAVIY YUKSALISHDA JADID MA'RIFATPARVARLIK

G'OYALARINING AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada yurtimizda jadid ma'rifatparvarlik harakatining paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari, ularning milliy o'zlikni anglash, milliy istiqlol, ma'naviy-ma'rifiy va ijtimoiy-siyosiy islohotchilik g'oyalari va ularning bugungi yangilanish va milliy yuksalish davri uchun ahamiyati Mahmudxo'ja Behbudiy qarashlari misolida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: jadidchilik, ma'rifatparvarlik, milliy o'zlikni anglash, milliy ozodlik harakati, islohot, maorif islohoti, ijtimoiy-siyosiy islohot, milliy mustaqillik, milliy yuksalish, ma'naviy yangilanish, ma'rifatli jamiyat, Uchinchi Renessans.

Рахманов Абдималик Эргашевич

Преподаватель Термезского государственного университета,

кандидат философских наук

Э-почта: rahmanov-57@mail.ru

Тел: +998 90 519 55 03

ЗНАЧЕНИЕ ИДЕЙ ДЖАДИДСКОГО ПРОСВЕТИТЕЛЬСТВА В ПРОЦЕССЕ НАЦИОНАЛЬНО-ДУХОВНОГО ВОЗРОЖДЕНИЯ

Аннотация. В данной статье рассмотрены возникновение и этапы развития джадидского просветительского движения в Узбекистане, а также идеи национального самосознания, независимости, духовно-просветительских и социально-политических реформ, их значение для периода обновления и национального подъёма современного Узбекистана на примере взглядов Махмудхужа Бехбуди.

Ключевые слова: джадидизм, просветительство, национальное самосознание, движение за национальную независимость, реформы, реформа образования, социально-политические реформы, национальная независимость, национальное развитие, духовное обновление, просвещённое общество, Третий Ренессанс.

Rahmanov Abdimalik Ergashovich

Lecturer at Termez State University, PhD in Philosophy

E-mail: raxmanov-57@mail.ru

Phone: +998 90 519 55 03

THE IMPORTANCE OF JADID ENLIGHTENMENT IDEAS IN THE PROCESS OF NATIONAL-SPIRITUAL REVIVAL

Abstract. This article explores the emergence and development stages of the Jadid enlightenment movement in Uzbekistan, focusing on its ideas concerning national identity, independence, educational and socio-political reform, and their relevance to today's era of renewal and national progress. The analysis is based on the views of Mahmudxuja Bekhbudiy.

Key words: Jadidism, enlightenment, national identity, national liberation movement, reform, educational reform, socio-political reform, national independence, national progress, spiritual renewal, enlightened society, Third Renaissance.

Kirish.

Jahon tajribasiga nazar tashlasak, ijtimoiy taraqqiyotga ulkan ta'sir ko'rsatgan nazariy ta'limot va mafkuralarni yaratish uchun tarixning turli davrlarida ulkan aql-zakovat, iste'dod va teran tafakkur sohiblari mislsiz zahmat chekkanini ko'ramiz. Turkistondagi jadidlar faoliyati ham buning yaqqol tasdig'idir. Xalqimizning milliy o'zligini anglashi jarayonida jadid ma'rifatparvarlik g'oyalari va ularning amaliy harakatlari muhim rol o'ynagan. Jadidchilik Osiyo va Yevropadagi ilg'or o'zgarishlar ta'siri ostida XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda hukm surgan mustamlakachilik hamda favqulodda qoloq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitda yashayotgan xalqlarni ma'rifatlashtirish, ularning

milliy o'zligini anglashini shakllantirish, jamiyat hayotida ijtimoiy va madaniy islohotlar o'tkazish, pirovardida, milliy mustaqillik g'oyalarini hayotga tatbiq etish maqsadini ko'zlagan harakat sifatida tarixiy vaziyat taqozosi bilan vujudga kelgan fenomendir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ma'naviy merosimizni chuqur o'rganish bilan bog'liq masalalarga alohida to'xtalib, "...jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi", - deya ta'kidlagan edi [1]. Zero, milliy o'zlikni anglashning shakllanishi xalq, etnos, millatning butun borlig'i, uning ma'naviy merosi bilan uzviy bog'liq voqelikdir.

Adabiyotlar tahlili.

Jadidchilik, uning atoqli namoyondalari hamda ularning ijtimoiy-siyosiy g'oyalari va faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarga oid kitoblar, to'plamlar, ko'plab ilmiy anjuman materiallari, risola va maqolalar chop etilmoqda. B.Qosimovning "Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik" nomli monografiyasi [4], "Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash" nomli maqolalar to'plami, "Jadid ma'rifatparvarlik harakatining g'oyaviy asoslari" nomli Toshkent islom universitetida o'tkazilgan respublika ilmiy-amaliy anjuman (15-aprel 2016-yil) materiallari, "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari shular jumlasidandir. Ushbu adabiyotlarda tarixiylik va mantiqiylik metodi asosida jadidchilik harakati ma'naviy-ma'rifiy asoslarining mohiyati, xalq tafakkurini o'stirish, ma'naviyatini boyitish, milliy o'zligini anglashi uchun olib borgan faoliyatlari tahlil qilingan. Ayniqsa taniqli tarixchi olim D.A Alimovning "Jadidchilik fenomeni" kitobi [3] alohida diqqatga sazovordir. Unda jadidchilikning mohiyati va uning O'rta Osiyo xalqlari tarixidagi o'rni va ahamiyati yaxlit va xolis tahlil qilingan. Jadidchilik

harakati davrlashtirilgan, harakat namoyondalarining tarix, madaniyat, din va davlatchilik masalalariga oid qarashlari o'rganilgan, ularning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi roli yoritilgan.

Taniqli tarixchi olimlarimiz N.Karimov va D.Alimovalar o'z tadqiqotlarida [3] jadidchilikning XX asr boshlarida maydonga chiqqanligini va ma'rifatparvarlikdan qudratli siyosiy harakatga qadar bo'lgan rivojlanish yo'lini bosib o'tganligini ta'kidlaydilar.

Tadqiqot metodologiyasi.

Milliy-ma'naviy yuksalishda jadid ma'rifatparvarlik g'oyalarining ahamiyatini yoritib berishga qaratilgan mazkur maqolada ilmiy tadqiqotning analogik tahlil, germenevtik tahlil, ijtimoiy-falsafiy tahlil kabi mantiqiy uslublaridan keng foydalanilgan.

Tahlillar va natijalar.

Turkiston xalqlarining milliy ongi va ma'naviyatiga, milliy o'zligini anglashiga kuchli ta'sir ko'rsatgan jadid ma'rifatparvarlarining g'oyalari ham jamiyatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotidagi tarixiy o'zgarishlar ta'siri ostida mazmunan boyib bordi. Turkistonda jadidlarning birlashishi va keng qanot yozishida "jadidlar rahbari" deb tan olingan Mahmudxo'ja Behbudiy (1879-1919)ning xizmatlari beqiyosdir. U tariximizning g'oyat og'ir va murakkab bir davrida, ya'ni o'zaro ichki nizolar va milliy parokandalik tufayli o'lkani zabt etgan Rossiya mustamlakachilari uni turg'un va tutqun saqlashga urinayotgan bir sharoitda yashab ijod qildi va diniy hamda dunyoviy bilimlarga bir xil munosabatda bo'lib, ular asosida yoshlarni milliy ruhda tarbiyalash, milliy o'zligini anglash va taraqqiyotga boshlash lozimligini ta'kidladi. U jamiyat islohotini maktab va madrasadan boshlash zarur, chunki millat hayoti ta'lim-tarbiya bilan belgilanadi, deb ko'rsatadi. Mahmudxo'ja Behbudiy ustozlari Rossiya jadidchilik harakatining asoschisi Ismoilbek Gasprinskiy bilan uchrashuvlari va 1899-1900-yillarda haj safari davridagi dunyoviy taassurotlari ta'sirida 1903-yilda Samarqand atrofida o'z tashabbusi va mablag'lari hisobidan "usuli jadid", "usuli savtiya" nomlari bilan shuhrat topgan yangi maktablar tashkil etadi. Adib bu

maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi. Shu tariqa uning “Risolai asbobi savod” (1904), “Risolai jug‘rofiyai umroniy” (1905), “Risolai jug‘rofiyai rusiy” (1905), “Kitobatul atfol” (1908), “Amaliyoti islom” (1908), “Tarixi islom” (1909) nomli kitoblari yaratiladi [4].

Ma’rifat uchun maktab islohoti bilan birga dunyo voqealari bilan tanishib borish, millat va Vatanning kundalik hayoti va ahvolidan xabardor bo’lish zaruriyati Mahmudxo’ja Behbudiyni matbuot va teatr sohasidagi faoliyatga undadi. O’zbek dramaturgiyasining birinchi namunasi bo’lgan “Padarkush” dramasi ushbu faoliyat samarasidir. Unda o’qimagan bolaning buzuq yo’lga kirib o’z otasini o’ldirgani, xalqning nodonligi va jaholati tasvirlab beriladi. 1913-yildan u matbuot ishlari bilan shug’ullanib “Samarqand” (hozirgi “Zarafshon”) gazetasini turkiy va forsiy tillarda chiqara boshlaydi. So’ngra 1913-yil avgustidan “Oyna” jurnalini tashkil etadi. Ushbu jurnalda millat va uning haq-huquqi, tarixiga, til-adabiyot masalalariga, dunyo voqealariga bag’ishlangan maqolalar chop etilgan.

Jadidchilik harakati XX asr boshlaridan 1917-yil fevral inqilobiga qadar bo’lgan o’z rivojining birinchi bosqichida maorif islohoti, yangi tipdagi maktablarni ochish, xalqni ma’rifatlashtirish g’oyalarini ilgari surib, jadid maktabi, matbuoti, adabiyoti va teatriga asos soldi. Jadidlar o’z siyosiy qarashlarida parlamentar monarxiya tuzumini yoqlab Davlat Dumasida turkistonlik vakillar bo’lishiga, so’ngra birlashib yagona musulmon partiyasi tuzish va Butunrossiya musulmonlari ittifoqiga kirishga intildilar. Shu tariqa jadidchilik yetuk siyosiy milliy ozodlik harakatiga aylandi. XX asr boshlariga kelib Turkiston o’lkasida milliy uyg’onish davri boshlandi. Bu jarayon yetakchilari jadid ziyolilari edilar. Holi zabun, ruhi so’nik millatning qadim madaniyati, iqtisodiyoti va maishiy turmush tarzini tiklash uchun avvalo uni ma’rifatli qilish lozim edi. Zamonaviy ilmdan bexabar har qanday millat, har qanday jamiyat tanazzulga uchramog’i tayinligi bois jadid ziyolilari millatni bunday ofatdan xalos etmoqlikni ham qarz, ham farz deb bildilar. Mahmudxo’ja Behbudi “Oyna” jurnalining 1913-yil 13-avgustdagi birinchi sonidayoq chop etilgan “Ikki emas, to’rt til lozim” nomli maqolasida “Arabiy bilmasak, din, ruscha bilmasak, dunyo qo’ldan ketar. Turkiy

va forsiyning kerakligiga soʻz yoʻqtur. Yana bir xil til borki, butun olam bir-birila aning ila soʻylaydur. Ul fransa xati ila tilidur... Bizga lozimki, oʻz nafʼiliq uchun ruscha bilaylik, hukumat maktablarida oʻqiyluk. Davlat mansablarigʻa kirayluk... Musulmon boʻlib turib, taraqqiy qilayluk...”, – deb yozgan edi [3].

Fevral inqilobi, chor hukumatining zaiflashuvi va nihoyat bolsheviklarning hokimiyat tepasiga kelishi davrlarida jadidchilik harakati oʻzining ikkinchi bosqichida asl siyosiy maqsadini ifodalovchi gʻoyalarni – milliy istiqlol, mustaqil davlatni barpo etish, demokratik huquq va erkinliklar berilgan va konstitutsion jihatdan kafolatlanadigan demokratik jamiyatni shakllantirish gʻoyalarini amalga oshirishga kirishdi. Mahmudxoʻja Behbudiyning “Haq berilmas – olinur” soʻzlari jadid maʼrifatparvarlarining shiori boʻlib qoldi. Biroq, mustabid shoʻrolar tuzumining taʼqibi, kuchli va birlashgan siyosiy tashkilotga ega boʻlmaganligi hamda xalq ommasini hali uygʻota olmaganligi bois jadidlar oʻz maqsadlariga erisha olmadilar. Markazi Qoʻqonda boʻlgan “Turkiston muxtoriyati” hukumatini shoʻrolar davlati goʻdakligidayoq yanchib tashladi, jadidlar taʼqibi avj oldi [6].

Mustabid sovet tuzumining hukmronligi va taʼqibi avj olgan 20-30-yillar davrida jadidchilik oʻzining soʻnggi yakunlovchi bosqichini boshdan kechirdi. Bu davrda ular xalqimiz olib borgan milliy ozodlik va mustaqillik kurashining yalovbardori va gʻoyaviy rahnamolari boʻldilar, madaniyat va maorif sohasida samarali faoliyatlarini davom ettirdilar. Ushbu davrdagi jadidlar faoliyatining uch yoʻnalishini taʼkidlash mumkin: milliy ozodlik kurashi sifatida koʻtarilgan “bosmachilik harakati”ga gʻoyaviy tashkiliy rahbarlik qilish, maxfiy uyushgan siyosiy tashkilotlarda faoliyat olib borish, shoʻro hukumatining mustamlakachilik siyosatini demokratik asosda oshkora tanqid qilish. Istiqlolchi jadidlar eʼtibor bergan asosiy masalalardan biri milliy ruhni tarbiyalash va milliy oʻzlikni anglashni shakllantirish boʻldi. 20-yillarning birinchi yarmida madaniyat va maorif sohasidagi faoliyatlarida oʻnlab yangi maktablar ochdilar, bu maktablar uchun darslik va qoʻllanmalar yaratdilar, nashriyotlar tashkil etdilar, teatr sanʼatini rivojlantirdilar, turli madaniy-maʼrifiy toʻgaraklar uyushtirdilar. Koʻp janrli jadid adabiyoti – sheʼriyat, dramaturgiya, proza va publitsistika rivojlanishda davom

etib, xalqimizning milliy ozodlik kurashida, xalqning milliy ongini uyg‘otish va o‘zligini anglashda, milliy qadriyatlarni ulug‘lashda muhim rol o‘ynadi va millat qalbida milliy iftixor tuyg‘usini avj oldirdi.

Mustabid tuzumning ta‘qibi va tazyiqiga qaramasdan inson erki, millat ozodligi g‘oyalarini targ‘ib qilgan jadid ma‘rifatparvarlari 20-30-yillardagi repressiv siyosat, ayniqsa, 1937-1938-yillardagi qatag‘on qurbonlari bo‘ldilar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev o‘zining “Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston” nomli kitobida ta‘kidlaganidek, “...mamlakatimizda Uchinchi Renessansni XX asrda ma‘rifatparvar jadid bobolarimiz amalga oshirishlari mumkin edi. Negaki, bu fidoyi va jonkuyar zotlar o‘zlarining butun umrini milliy uyg‘onish g‘oyasiga bag‘ishlab, o‘lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g‘aflat botqog‘idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar. Shu yo‘lda o‘zlarining aziz jonlarini ham ayamadilar. “Ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas” degan ezgu g‘oyani o‘zlari uchun hayotiy e‘tiqod sifatida belgilagan insonlar milliy istiqlol, taraqqiyot va farovonlikka, avvalo, ma‘rifat orqali, zamonaviy bilim va ilm-hunarlarini chuqur egallash orqali erishish mumkinligini chuqur anglagan edi.

Bu davrda Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo‘jaev, Abdurauf Fitrat, Is‘hoqxon Ibrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Ashurali Zohiriy, Hoji Muin va boshqa yana yuzlab ulug‘ insonlar milliy uyg‘onish va millatparvarlik harakatining oldingi saflarida turdilar. Ular yangi usul maktablari bilan bir qatorda, odamlarning dunyoqarashi va turmush tarzini o‘zgartirishga qaratilgan gazetalar, nashriyot va kutubxonalar, teatrlar tashkil etdilar.

Ming afsuski, jadid bobolarimizning o‘z oldiga qo‘ygan ezgu maqsadlarini amalga oshirishiga mavjud vaziyat, ijtimoiy tuzum yo‘l bermadi. Ma‘rifat fidoyilari ilg‘or qarashari uchun johil kimsalarning tuhmat-malomatlariga duchor bo‘ldilar. Avval chor hukumati, keyinchalik sho‘rolar davlati ularni ayovsiz quvg‘in va qatag‘on qildi. Shu tariqa milliy uyg‘onish va taraqqiyot harakati el-yurtimiz uchun armon bo‘lib qoldi.

Bugungi kunda biz jadid ma'rifatparvarlarining O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratish to'g'risidagi ezgu orzularini ro'yobga chiqarishni o'zimiz uchun asosiy maqsad qilib belgiladik. Bundan buyon bilim, ta'lim va tarbiya - Yangi O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining asosiy ustuniga aylanishi darkor" [2].

Xususan, Mahmudxo'ja Behbudiy milliy ozodlik harakatining buyuk namoyondasi sifatida ilm-fan, ta'lim va tarbiya, adabiyot va san'at, matbuot sohalarini rivojlantirish, jahondagi ilg'or taraqqiyot yutuqlarini o'zlashtirish orqali xalqimizning ongu tafakkurini yuksaltirish hamda hurriyatga erishish yo'lida o'z hayotini baxshida etgan fidoyi zotdir [4].

Xulosa.

Bugungi kunda atoqli ma'rifatparvarlarimizning orzu-armonlari to'liq ushaldi. Milliy mustaqilligini qo'lga kiritgan xalqimiz keng ko'lamli va uzoqni ko'zlagan islohotlarni amalga oshirmoqda. Bu esa ma'rifatparvar jadid ziyolilarining nomlari ham, g'oyalari ham hamisha barhayot ekanligidan dalolatdir. Jadid ma'rifatparvarlarining islohotlar yo'li bilan jamiyatni yangilash, milliy o'zligini yuksaltirish, ma'rifat va taraqqiyotga yetaklash g'oyalari bugungi kundagi jamiyatimizni innovatsion rivojlantirish g'oyalari bilan hamohangdir. Ayniqsa, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasini hamda 2022-2026-yillardagi Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini hayotga tatbiq etish uchun mustaqil yurtimizning yangi tarixida "islohot", "innovatsiya", "modernizatsiya", "ma'naviy yangilanish", "ma'rifatli jamiyat", "Uchinchi Renessans" singari g'oyalar asosidagi amaliyot o'zining ijobiy samaralarini berib kelmoqda.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 24-yanvar 2020yil. – "Xalq so'zi" gazetasi, 2020-yil 25-yanvar, № 19(7521).
2. Mirziyoev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2024. – 560 b.

3. Alimova D.A. Jadidchilik fenomeni. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – 272 b.
4. Qosimov B. Milliy uygʻonish: jasorat, maʼrifat, fidoyilik. – Toshkent: Maʼnaviyat, 2002. – 400 b.
5. Raxmanov, A. Sharq renessansi davri gumanizmining gnoseologik va ontologik asoslari. - Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2022, 2(10). – B. 668-674.
6. Raxmanov A.E. Jadid maʼrifatparvarlik gʻoyalari va milliy oʻzlikni anglash. – Tamaddun nuri.(Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-maʼrifiy, adabiy-badiiy jurnal.) – 2024-yil, 11-son (62). – B. 151-153.
7. Rakhmanov A.E. The principle of separation of powers in the history of the state. – World Bulletin of Social Sciences (WBSS), Vol.34, May 2024. – P. 79-81.
8. Rakhmanov A.E. Socio-philosophical significance of the concept of national state sovereignty. – Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, vol. 3, 2022. – P. 49-51.